

**O'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISHDA ARXEOLOGIYA VA ETNOLOGIYA –
ETNOGRAFIYANING AHAMIYATI.**

Burxanova Sabo Tulanovna

Toshkent Moliya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti.

Annotatsiya: Kishilik jamiyatining vujudga kelish jarayoni uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'z navbatida o'tmishni o'rganish har bir davrning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologiya fani ham tarixning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy fanlar orasida alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada o'zbekiston tarixini o'rganishda arxeologiya va etnologiya – etnografiyaning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Arxeokompleks ekspeditsiya, iyeroglif, manbashunoslik, etnogenez, etnografiya, numizmatika, kartografik o'rganish, arxeologiya .

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab mazkur hududda kechgan davlatchilik jarayonlari hamda o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish dolzarb masala darajasiga ko'tarildi. Xalqimizning o'z tarixi va milliy qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, ajdodlarimizning turli moddiy ma'naviy yodgorliklarni tadqiq etish ishlari qo'llab quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublika rahbariyati bu borada tashabbuskorlik ko'rsatib, tarixchi, arxeolog va sharqshunos olimlar oldiga xalqimizning qadim tarixini qaytadan, haqqoniy ravishda yaratish vazifasini qo'ydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda "O'zR FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. 1998 yil 11 avgustda bo'lib o'tgan akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish" Respublika ilmiy seminarida tayyorlangan "O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi" loyihasi ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, 2016 yil 30 dekabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning yetakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari, bir so'z bilan aytganda ilm ahli bilan uchrashib, ular bilan ilm-fanni yanada rivojlantirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini amalga oshirish borasidagi ishlari, Respublikamiz Prezidentining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muxofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 19 dekabr № 4068 qarori bu boradagi sezilarli qadam bo'ldi.

Arxeologiya – tarix fanining mustaqil yo`nalishi bo`lib, o`zining [tadqiqot obyekti](#), shuningdek, ularni ochib o`rganishda maxsus uslublardan foydalaniladi. Ya`ni zamonaviy tushunchada arxeologiya ibtidoiy, antik, o`rta asrlarga oid yodgorliklarni o`rganish va qayta tiklash ishlarini olib borish tushuniladi. Arxeologiya va tarixni bir-biridan ajratib bo`lmaydi, ikkala fanning ham maqsadi bir xil, ya`ni insoniyat tarixini o`rganishdan iborat. Mazkur sohada faoliyat yuritayotgan kishilar tarixchi va arxeolog deb yuritiladi. Arxeologiya o`zining uzoq rivojlanish tarixiga ega. Rivojlanish tarixi bevosita insoniyat jamiyatining [umumi tarzda rivojlanib](#), ilm va fanning rivojlanish jarayonidagi o`zgarishlarni arxeologik topilmalar misolida ko`rish mumkin. Arxeologiya – yosh ijtimoiy fanlardan biri bo`lsa-da, uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Yozma manbalardan ma`lumki, mil. avv. VI asrda Bobil podshosi Navonid (Nabunaid, Nabonagid, mil. avv. 555-538 yy.) saroy va ibodatxonalarning asos qismida qazuv ishlarini olib borgan. Ayni paytda Britaniya muzeyida Nabonid tomonidan topilgan yozuvli taxtacha saqlanmoqda. “Arxeologiya” atamasi yozma manbalarda ilk marta yunon faylasufi Platon (mil. avv. 427-347 yy.) ning “Katta Gippiy bilan suhbat” asarida tilga olinadi. Arxeologiya ikkita qdimgi yunon so`zidan iborat bo`lib, “arxeos” – qadimgi, “logos” – fan degan ma`nolarni anglatadi. Xuddi shunga o`xshash iborani yunon yozuvchisi Diodor Sitsiliyskiy (mil. avv. 80-29 yy.) ham qayd etgan. Ya`ni Troya urushigacha bolgan davr ellinlar nazarida “Ellinlar arxeologiyasi” hisoblangan. Diodor Sitsiliyskiyning zamondoshi Dionisiy Galikarnasskiy Rim tarixini Puni urushigacha bo`lgan davrini “Rim arxeologiyasi” deb atagan. “Arxeologiya” atamasini shuningek Strabon va boshqa yunon muarrixlari ham ishlatib, ularning nazarida bu atama nafaqat qadimgi, balki ibtidoiy davrni ham qamrab olgan. O`rta asrlarda “arxeologiya” atamasi “qadimiyat” atamasi [tomonidan siqib chiqarilib](#), ancha vaqtgacha (XIX asrgacha) yodga olinmaydi. 767 yilda Gettingen universiteti prof. Xristian Gottlib Geyni “arxeologiya” atamasiga “Yunon va rimliklarning qadimgi san`ati arxeologiyasi” kursi bo`yicha ma`ruza o`qib, uni qaytadan muomalaga kiritadi. Lekin bu yunonlarning “arxeologiya” ga bergan ta`riflari singari keng qamrovli bo`lmay, faqat klassik san`at yodgorliklarini ta`riflash va klassifikatsiya qilish bilan cheklangan. XIX asr boshigacha qadimiyat bilan shug`ullanuvchilarni faqat antik madaniyat namunalari qiziqtirgan. Shu davrdan boshlab arxeologiyaning yordamchi tarmoqlari – numizmatika (tangashunoslik), epigrafika (toshlardagi bitiklarni o`rganish), sfragistika

(muhrlarni o'rganuvchi fan) vujudga kela boshlaydi. Epigrafikaga qiziqish Angliyada ham yoyila boshlaydi. Bu yerda arxeologiya qirol Karl I va uning yaqinlari homiyligida boyitila boshlandi. Dunyo xalqlarining bir necha 100 ming yillaridan beri davom etib kelayotgan tarixi bor. Lekin shu uzoq tarixiy tarakkiyotning eng qadimgi 5-6 minginchi yillaridan boshlab yozma asarlar bulib undan avval xalqlarda yozuv va yozma tarix bulmagan.

Bundan tashqari bu o'rinda arxeologiya maktablari haqida gapirish ham o'rinlidir chunki Markaziy Osiyo – Sharqning eng qadim tarixga va material yodgorliklarga ega hudud sifatida ko'p asrlar davomida qancha-qancha o'lkashunoslar va tarixchi-sharqshunoslarni o'ziga tortgan. Maxsus arxeologik tadqiqotlar bu yerda XIX asrdan boshlangan. 1895-yilda bu yerda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi shakllandi, uning a'zolari qiziq arxeologik va numizmatik materiallar, sa'nat predmetlarini yig'ishgan, hattoki arxeologik qazilma ishlarini ham olib borishgan. Ammo kadrlar yetishmasligi, yumshoq material yodgorliklarni o'rganish metodikasini bilmaslik, xronologiyadan bexabarlik, natijasida bu tadqiqotlar ilm-fan uchun katta foyda keltirmas edi. Faqatgina XX asrning 20-yillarida tarixiy yodgorliklarining sistematik, kartografik va topografik o'rganilishi boshlandi. Birinchi majmuaviy arxeologik ekspeditsiyalar o'z ishlarini boshladi. Ularning tadqiqotlari natijasida ilmiy dunyoga O'zbekiston va qo'shni respublikalarning boy qadimgi madaniyatlarning yodgorliklari ochildi. Ammo shu bilan birga ular O'rta Osiyoning madaniy yodgorliklarini ilmiy sifatli o'rganishda malakaviy kadrlarning yetishmasligini ham namoyish qilishdi. Buning natijasida 1939-yilda SAGU (hozirgi O'zMU) Tarix fakulteti dasturiga O'rta Osiyo arxeologiyasi kurslari ham qo'shildi. Bu bilan bir paytda o'rtaga fakultetda O'rta Osiyo arxeologiya tematikasiga maxsuslangan arxeologlar tayyorlovchi o'qish markazini ham tashkillashtirish haqidagi savol qo'yildi. Bunday markaz 1940- yilning 1-aprelida ochilgan arxeologiya kafedrasini bo'ldi. Unga rahbar qilib, arxeologiya doktori, professor iqtidorli, ilmga sho'ng'igan, qiziquvchan olim — Mixail Masson tayinlandi.

Xulosa: Ko'rib turibmizki, insoniyatning shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, uzoq davrni o'zida qamragani uchun ham uni o'rganishni osonlashtirish uslublarini topish juda muhimdir. Tarix fanida har bir davrning jadval tarzida berilishi shu masalani yechishda yordam beradi, ikkinchi tomondan oldin belgilangan sanalarda bo'lgan o'zgarishlarni tez anglashda, boshqa xalqlar hayoti bilan taqqoslab baho berishda, ayniqsa bir xil tarixiy voqealarni turlicha talqin qilinishining oldi olingan bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аванесова Н.А. Эпоха бронзы Средней Азии. Ч.I. Учебное пособие. Самарканд. Изд. СамГУ. 1988.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. М., 1989.
3. Авеста. Избранные гимны из Видевдата. М.1993.
4. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т. 2000.
5. Алексеев В.П. Становление человечества. М., 1984.
6. Алимова Д. А., Ртвеладзе Э. В. Очерки по истории государственности Узбекистана. «Шарк». Т. 2001.
7. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи. Т.,2009.